

2022-2026- YILLARDA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING MILLIY IQTISODIYOTNI ISLOH QILISHIDAGI O‘RNI

Latipov Abbos Sharipovich.

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti “Geodeziya va geoinformatika” ta’lim yo’nalishi talabasi.

Annotasiya: *Ushbu tezisda O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini rivojlantirish, isloh qilish,*

Kalit so‘zlar: *monopoliya, soliq stavkasi, investitsiya, liberallashtirish, xususiy sektor, strategiyasi, eksklyuziv huquq, modernizatsiya, ekspeditorlik.*

Prezidentimiz farmonida Taraqqiyot strategiyasini o‘z vaqtida v asamarali amalga oshirish barcha davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ustuvor vazifasi hisoblanishini alohida qayd etilgani unda belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Taraqqiyot strategiyasi besh bosqichda, yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshiriladi.

Shuningdek, mazkur strategiyada byudjet mablag‘larining samarali sarflanishini ta'minlash maqsadida mahalliy byudjetlarning imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilishini ko‘zda tutgan. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashva yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar,

tumanlar va shaharlarni kompleks hamda mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlarga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish. Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirish ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi.

Taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash masalalariga ham alohida e'tibor berilgan:

a) 2022-yilda yillik inflyatsiya darajasini 9 foizgacha va 2023-yilda 5 foiz hamda fiskal taqchillikni 3 foizgacha pasaytirish choralari ko'rildi.

b) 2023-yildan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 12 foizgacha hamda bank, moliya va telekommunikatsiya kabi tadbirkorlik yo'nalishlarida foyda solig'i stavkasi 15 foizgacha tushiriladi.

d) "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligi 20 foizga oshiriladi va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmi 10 foizga qisqartiriladi.

Mamlakatimizda so'nggi besh yil mobaynida iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektor uchun keng yo'l ochish borasida keng qamrovli tadbirlar amalga oshirildi. Lekin, shunga qaramasdan, hali bu borada hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar mavjud. Shu sababli mazkur masala Taraqqiyot strategiyasida ustuvor vazifalar qatoriga kiritildi. Bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun eksklyuziv huquqlarni bekor qilish va davlat ishtirokidagi kompaniyalarni xususiylashtirish hisobiga aholi va ijtimoiy soha obyektlariga suyultirilgan gaz yetkazib berish, sertifikatlashtirish, neft mahsulotlarini saqlash, temir yo'llarda tashishda qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish, aerovokzal va vokzal oldi komplekslarini yuritish xizmatlari hamda qayta ishlash xizmati, temir yo'lda ekspeditorlik xizmatlari kabi 25 dan ortiq faoliyat turi bo'yicha monopoliyalar tugatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 634-635.
2. Xaydarov B. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA XORIJIY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – С. 151-156.
3. Хайдаров Б. ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 288-292.
4. Бахром Х. Х. БИЗНЕСНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТАРТИБЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 12. – №. 2. – С. 139-142.
5. Xaydarov Bahrom Xolmuradovich, & Saitov Sirojiddin Abduvalievich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNING O'RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 113–116. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/131>